



MAKTAB O‘QUVCHILARIGA MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR: MUHIM YONDASHUVLAR VA AMALIY USULLAR

Ravshanova Madina Ilhom qizi

Buxoro davlat universiteti magistri

ravshanovamadina61@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada matematika fanini maktab o‘quvchilariga o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari yoritiladi. Ta’lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interfaol metodlar va innovatsion vositalarni tatbiq etish orqali o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi, mustaqil fikrlash salohiyati va amaliy ko‘nikmalari rivojlanadi. Maqolada ilg‘or tajribalar va dolzarb manbalar tahlil qilinib, matematikani o‘qitishda samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi usullar taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Matematika, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, multimedia vositalari, o‘quvchilarning faolligi, mustaqil fikrlash, dars samaradorligi.*

Zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biri — o‘quvchilarning faolligini oshirish, fanga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish va ularni real hayotiy vaziyatlarda muammolarni mustaqil hal qilishga o‘rgatishdir. Ayniqsa, matematika kabi aniq fanlarni o‘qitishda bu talablar yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda yangi pedagogik texnologiyalarni o‘z o‘rnida qo‘llash orqali darslarni yanada qiziqarli, samarali va amaliyotga yaqinlashtirilgan holda tashkil qilish mumkin.

1. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning roli. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari — bu o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, bilimlarni interaktiv shaklda yetkazish va o‘quvchilarni darsga faol jalb qilishga qaratilgan usullar yig‘indisidir. Xususan, matematika fanida quyidagi texnologiyalar o‘zini oqlamoqda:

- Multimedia va axborot texnologiyalari: slayd, animatsiya, video darslar va taqdimotlar orqali murakkab mavzularni tushuntirish;
- Interfaol metodlar: guruhli ishlar, rolli o‘yinlar, testlar, viktorinalar, aqliy hujum;
- Differensial yondashuv: har bir o‘quvchining bilim darajasiga mos topshiriqlar berish;
- Loyiha asosida o‘qitish: o‘quvchilarni kichik loyihalar ishlab chiqishga jalb qilish orqali mustaqil fikrlashni rivojlantirish.

2. Ilmiy manbalar tahlili. So‘nggi yillarda pedagogika sohasida olib borilgan tadqiqotlar, matematika darslarini tashkil etishda zamonaviy metodikalar va texnologiyalarning ahamiyati ortib borayotganini ko‘rsatmoqda.

- X. Egamov o‘z maqolasida multimedia vositalari va dasturlarni qo‘llash orqali matematikani o‘qitishni vizual va tushunarli qilish yo‘llarini ko‘rsatadi.



- S. Mamasodiqova va D. Kimsanova zamonaviy texnologiyalar orqali dars samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishni taklif qiladilar.

- I. Esirgapov va A. Rustamov interfaol metodlar — muammo asosida o‘qitish, aqliy hujumlar, “aqliy chizgich” usullarining yuqori sinf o‘quvchilari uchun foydasini asoslab berishadi.

- G. Berdiyeva va boshqalar esa boshlang‘ich sinflarda texnologiyalardan foydalanishning psixologik va metodik jihatlarini ochib beradi.

3. Amaliy tavsiyalar

- GeoGebra, Desmos kabi onlayn grafik platformalardan foydalanish;
- Har bir mavzuga oid qiziqarli masalalar, matematik o‘yinlar va test topshiriqlari bilan mashg‘ulotni yakunlash;

- Darsda video tajribalar yoki modellashtirish usullarini qo‘llash orqali mavzuni amaliy hayot bilan bog‘lash;

- Gamifikatsiya: o‘yin elementlarini darsga tatbiq etish (ball to‘plash, bosqichdan o‘tish, sertifikat olish va h.k.).

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, matematika fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o‘quvchilarning bilim darajasi va mantiqiy tafakkurini sezilarli darajada rivojlantirishga xizmat qiladi. Yuqori sinflarda bu yondashuvlar o‘quvchilarning fan bilan bog‘liq kasbiy yo‘nalishlarni tanlashlariga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, har bir matematik o‘qituvchi o‘z darslarini zamonaviy usullar asosida loyihalashi, interfaol, texnologik va ijodiy yondashuvlarni qo‘llashi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boboyeva M.N., Qutliyeva Z.O. Formation of elementary mathematical concepts in preschool children. Journal of Global Research in Mathematical Archives. 11:6 (2019), p. 10-12.

2. Boboyeva M.N. Matematika darslarida innovatsion texnologiyalar. Science and Education. 2:11 (2021), 883-892 betlar.

3. Boboyeva M.N. Increasing creative activity of students by application of methods of analysis and synthesis in mathematics lessons. Research Jet Journal of Analysis and Inventions. 3:05 (2022), p.67-75.